

## HUDUDLARNI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA'SIRINI BAHOLASH

**Salayeva Lobar Ulug'bek qizi**

Urganch davlat universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda, xususan, yalpi hududiy mahsulot hajmi, qurilish ishlari hajmi va asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining o'zaro bog'liqligi hamda ularning iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'siri empirik jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, hududlar bo'yicha iqtisodiy faollik, infratuzilmaviy rivojlanish darajasi va investitsiyaviy muhitning shakllanishi tahlil etilib, har bir omilning mintaqaviy iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi baholandi. Tadqiqot natijalari hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish, investitsiyalarni samarali yo'naltirish hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** hudud, omillar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiy tizim.

### **Аннотация**

В данной статье проведён системный анализ основных факторов, влияющих на социально-экономическое развитие регионов. В исследовании, в частности, эмпирически изучена взаимосвязь между объёмом валового регионального продукта, объёмом строительных работ и объёмом инвестиций в основной капитал, а также их влияние на темпы экономического роста. Кроме того, проанализированы уровень экономической активности по регионам, степень развития инфраструктуры и формирование инвестиционного климата, оценён вклад каждого фактора в региональный экономический рост. Результаты исследования служат основой для разработки практических рекомендаций, направленных на повышение экономического потенциала регионов, эффективное направление инвестиций и формирование устойчивой социально-экономической политики.

**Ключевые слова:** регион, факторы, социально-экономическое развитие, экономическая система.

### **Abstract**

This article systematically analyzes the main factors affecting the socio-economic development of regions. In the study, in particular, the interrelationship between the volume of gross regional product, the volume of construction works and the volume of fixed capital investments and their influence on economic growth rates was studied empirically. Economic activity, the level of infrastructural development and the formation of the investment environment by region were also analyzed, and the contribution of each factor to regional economic growth was evaluated. The results of the research serve to develop practical recommendations for increasing the economic potential of the regions, directing investments effectively, and forming a sustainable socio-economic policy.

**Keywords:** territory, factors, socio-economic development, economic system.

## KIRISH

Hududlarini barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xom-ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-mayda PQ-4702-son “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori [1] ga muvofiq statistik ko‘rsatkichlar va so‘rovnomalar natijalari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi joriy etildi. Bu esa, o‘z navbatida respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish borasidagi muammolarning amaliy yechimi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi global raqobat va iqtisodiy transformatsiya sharoitida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash milliy barqarorlikning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Hududiy iqtisodiyot faqat ishlab chiqarish salohiyati bilan emas, balki investitsiya muhiti, qurilish infratuzilmasi va aholi turmush darajasi bilan ham belgilanadi. Shu bois, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o‘shish dinamikasini tahlil etishda asosiy ko‘rsatkichlardan — yalpi hududiy mahsulot (YAHM), qurilish ishlari hajmi, va asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish, mintaqalarni kompleks rivojlantirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy joylashtirish va boshqarish, mamlakat mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish singari masalalar O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.S.G‘ulomov [3], T.M.Axmedov [6], A.M.Sodiqov [4], A.M.Qodirov, Sh.H.Nazarov [9], B.Ro‘zmetov [4], Sh.B.Imomov [7], P.Z.Xashimov, F.T.Egamberdiyev, A.A.Qayumov [8], A.J.Siddiqov [10], I.O.Yakubov [11], D.Karimov [1] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida keng o‘rin olgan.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sikllari nazariyasi iqtisodiyotning evolyutsion rivojlanishining iqtisodiy subyektlari kutishiga bog‘liq yondashuvga asoslanadi. Taniqli xorijiy olimlar R.Lukas, A.Pigu, S.Fisher, Ch.Nelson va boshqa olimlarning modellarida qo‘llanilib, iqtisodiy tizimlarning siklik rivojlanishida kutishlarning rolini nazariy asoslash masalalariga e‘tibor qaratishgan. Shu bilan birga, ushbu nazariy va uslubiy tushunchalarning empirik asoslanishi ularga yangi amaliy nuqtai nazardan qarash imkonini beradi. Bundan tashqari, bu siklik rivojlanishdagi fazaviy o‘zgarishlarning tabiatiga iqtisodiy agentlarning kutishlarini belgilaydigan ma‘lum parametrlarning ta‘sir darajasini aniqlash imkonini beradi.

## METODOLOGIYA

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini sikllar nazariyasi asosida tadqiq etish maqsadida maxsus uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Bunda iqtisodiy va

ijtimoiy jarayonlarni davriylik nuqtai nazaridan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Quyida ushbu tadqiqotning asosiy uslubiy jihatlari keltiriladi.

1. Tadqiqotning metodologik asoslari (sikllarning turlarini aniqlash, tahlil bosqichlari, tizimli yondashuv).

2. Statistik va iqtisodiy ko'rsatkichlarni tanlash (asosiy ko'rsatkichlar yalpi hududiy mahsulot (YAHM), investitsiya hajmi, ishsizlik darajasi, aholi daromadlari, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, dinamika tahlili va kompozit indikatorlar, ya'ni bir nechta ko'rsatkichlar asosida umumiy indeks yaratish).

3. Ekonometrik modellashtirish va prognozlash (trend va sikllarni ajratish, bunda uzoq muddatli trend va davriy sikllarni ajratish uchun filtrlar, Xodrik-Preskot filtri va spektral tahlil qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiy jarayonlarning prognozlash modellari ARIMA, VAR yoki dinamik tarzda o'zgaruvchi omillar modellari kabi vositalardan foydalanish mumkin bo'ladi. Yohud ssenariylarni tahlil qilish).

4. Omillarni tahlil qilish: texnologik rivojlanish, demografik dinamika, infratuzilma va investitsiyalar.

5. Hududiy farqlarni tahlil qilish, bunda har bir hududning o'z o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va sikllarga bo'lgan ta'sirchanligi hisobga olinadi, hududlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlil qilinadi (klaster yoki iqtisodiy aloqalar asosida).

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy rivojlanish – bu muayyan hududning iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslari, mehnat bozori va infratuzilmasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish natijasida barqaror o'sishga erishish jarayonidir. Uning mezonlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- yalpi hududiy mahsulot hajmi va uning aholi jon boshiga nisbati;
- asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi;
- qurilish va infratuzilma rivojlanishi ko'rsatkichlari;
- sanoat va xizmat ko'rsatish sektori ulushi;
- ish bilan bandlik va aholi daromadlari darajasi.

O'zbekiston Respublikasida hududiy rivojlanish strategiyalari "O'zbekiston-2030" konsepsiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlarga muvofiq amalga oshirilmoqda. Buning asosiy maqsadi — hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni qisqartirish va investitsiyalarning geografik taqsimotini muvozanatlashtirishdan iborat (1-jadval).

**1-jadval.**

**Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (yillik) joriy narxlarda<sup>1</sup>**

*mld.so'm*

Hududlar	2010	2015	2020	2023	2024	2024-yilda 2023-yilga nisbatan %
O'zbekiston Respublikasi	88102,4	250544,6	668038	1204485	1454574	120,76
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2604,2	8339,9	25523,4	39166,2	45658,5	116,58

<sup>1</sup> Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Hududlar	2010	2015	2020	2023	2024	2024-yilda 2023-yilga nisbatan %
Andijon viloyati	5058,8	15705,4	42623,6	77337,9	90522,1	117,05
Buxoro viloyati	5131,6	14223,4	35320	61242,6	71560,4	116,85
Jizzax viloyati	2439,9	7458,5	20249,8	37383,2	43057,9	115,18
Qashqadaryo viloyati	7627,3	20220,7	40829,7	68648,6	80658,3	117,49
Navoiy viloyati	4580,7	11191,5	51800,6	88215,4	117297,8	132,97
Namangan viloyati	3968,5	12567,1	32713,2	58173,7	68915,7	118,47
Samarqand viloyati	7143,4	20481,8	47576	83149,5	99866,1	120,10
Surxondaryo viloyati	3802,2	12577	27571,6	46999,2	54354,1	115,65
Sirdaryo viloyati	1856,9	5628,1	14285,1	24001,7	28003,3	116,67
Toshkent viloyati	8347,3	24435,7	70691,6	121442,6	146385,2	120,54
Fargʻona viloyati	6209,9	18988,4	43413,1	78009	91333	117,08
Xorazm viloyati	3197	9971	23531,8	43666,7	51261	117,39
Toshkent shahri	11863,8	34080	107474,4	215099,2	281147,4	130,71

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 2010–2024-yillar davomida yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Agar 2010-yilda mamlakatning YAHM hajmi 88,1 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 1 454,6 trln so'mga yetgan, ya'ni so'nggi o'n to'rt yil ichida qariyb 16,5 barobar o'sgan. Bu o'sish mamlakat iqtisodiyotida diversifikatsiya, sanoat modernizatsiyasi, xizmatlar sohasining kengayishi va xususiy sektor faolligining ortishi bilan izohlanadi. Hududlar kesimida tahlil qilinganda, YAHMning yuqori sur'atda o'sishi Toshkent shahrida kuzatilib, 2024-yilda uning iqtisodiy hajmi 281,1 trln so'mni tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan 130,7 foiz o'sishdir. Bu holat poytaxtda iqtisodiy faollikning yuqori darajasi, investitsiyalar jamlanishi va xizmatlar sektorining ustuvorligi bilan bog'liq. Navoiy viloyatida ham jadal o'sish qayd etilgan bo'lib, YAHM 132,9 foizga oshgan – bu asosan sanoat korxonalarini, energetika va mineral resurslar sohasidagi faollik natijasidir. Samarqand va Toshkent viloyatlarida 2024-yilda o'sish mos ravishda 120,1 va 120,5 foizni tashkil etgan, bu hududlarda turizm, qishloq xo'jaligi va infratuzilmaviy qurilish ishlarining faollashganidan dalolat beradi. Qashqadaryo, Farg'ona va Andijon viloyatlarida ham iqtisodiy o'sish 117–118 foiz atrofida bo'lib, agrar va qayta ishlash sohasidagi faollikning ortishi bilan izohlanadi. Eng past o'sish sur'ati Surxondaryo (115,6%) va Jizzax (115,1%) viloyatlarida qayd etilgan, bu hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasi va investitsiya faolligining nisbatan sustligi bilan bog'liq (2-jadval).

**2-jadval**
**Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik)<sup>1</sup>**
*mldr.so'm*

Hududlar	2010	2015	2020	2023	2024	2024-yilda 2023-yilga nisbatan %
O'zbekiston Respublikasi	16463,7	44810,4	210195,1	356071,4	507490,2	142,52
Qoraqalpog'iston Respublikasi	496,4	6021,2	7089,8	12959,2	20567,7	158,71
Andijon viloyati	726,2	1956,5	9622,6	18639,1	28668	153,81
Buxoro viloyati	2147,2	4075,9	12183,9	31030,5	51663,9	166,49
Jizzax viloyati	440,8	1304,9	12545,4	14970,9	23515,4	157,07
Qashqadaryo viloyati	1792,8	5894,7	20557,6	21138	35482,5	167,86
Navoiy viloyati	1741,8	1809,1	15688,4	26398,6	33550,2	127,09
Namangan viloyati	660,6	2227,5	12007,2	19220,1	54231,4	282,16
Samarqand viloyati	508,4	1695,7	6254,1	6236,2	9328,117	149,58
Surxondaryo viloyati	655,3	1843,6	10068,2	18307,7	16593,1	90,63
Sirdaryo viloyati	406,2	1083,3	7191,9	15871,8	11406,3	71,87
Toshkent viloyati	1606,1	4428,1	21148,6	47709,3	73325,12	153,69
Farg'ona viloyati	930,9	2542,3	11040	19955	21542,7	107,96
Xorazm viloyati	416,9	1531,5	5391,8	11666,1	15624,1	133,93
Toshkent shahri	3309	6854,6	50371,4	71143,7	91642,8	128,81

O'zbekiston Respublikasida 2010–2024-yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi izchil o'sib borgan bo'lib, mamlakat miqyosida bu ko'rsatkich 16,5 trln so'mdan 507,5 trln so'mgacha o'sgan, ya'ni qariyb 30 barobar ko'paygan. Bu o'sish milliy iqtisodiyotdagi islohotlar, xususan, investitsiya muhitini yaxshilash, davlat-xususiy sheriklik tizimini joriy etish va tashqi sarmoyalarni jalb etishdagi faol siyosat samarasidir. 2024-yilda 2023-yilga nisbatan investitsiyalar hajmi 42,5 foizga oshgani mamlakat iqtisodiy salohiyatining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Hududlar kesimida tahlil etilganda, eng yuqori o'sish sur'ati Namangan viloyatida qayd etilgan - 282,2 foiz, bu viloyatda kichik sanoat zonalari, logistika markazlari va qayta ishlash korxonalariga yo'naltirilgan sarmoyalar hisobiga izohlanadi. Qashqadaryo (167,9%), Buxoro (166,5%) va Jizzax (157,1%) viloyatlarida ham jadal o'sish kuzatilgan bo'lib, bu hududlarda sanoat obyektlari, infratuzilma va qishloq xo'jaligi qayta ishlash tarmoqlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hissasi katta. Navoiy viloyatida 127,1 foizlik o'sish asosan sanoat klasteri va yer osti resurslarini o'zlashtirish loyihalari bilan bog'liq. Toshkent shahrida investitsiyalar 128,8 foizga

<sup>1</sup> Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

oshgani iqtisodiy markaz sifatida xizmatlar va developerlik sohasining faolligi bilan izohlanadi. Biroq ayrim hududlarda past o'sish yoki pasayish tendensiyasi ham kuzatilgan: Surxondaryo viloyatida investitsiyalar 9,4 foizga kamaygan, Sirdaryo viloyatida esa 28,1 foizga qisqargan, bu hududlarda loyihalarni moliyalashtirish manbalari cheklanganligi va xususiy sektor faolligining pastligi bilan bog'liq. Umuman olganda, jadval mamlakat bo'yicha investitsiya faolligining yuqori sur'atda o'sib borayotganini, hududiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida sarmoyalar ulushi oshib borayotganini va bu jarayonning YAHM o'sishiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi (3-jadval).

### 3-jadval

#### Qurilish ishlari hajmi (yillik)<sup>1</sup>, mlrd.so'm

Hududlar	2010	2015	2020	2023	2024	2024-yilda 2023-yilga nisbatan %
O'zbekiston Respublikasi	8245,8	25423,1	88130,3	202819,2	263679,2	130,01
Qoraqalpog'iston Respublikasi	237,1	1219,3	3992,5	7457,8	8667,6	116,22
Andijon viloyati	345,3	1341,9	4673	10070,8	12936,2	128,45
Buxoro viloyati	580	2061,7	5659,8	13400,4	16863,8	125,85
Jizzax viloyati	211,5	759,2	2715	5543,6	6532,4	117,84
Qashqadaryo viloyati	699,2	2067,5	4832,6	12971,7	15614,8	120,38
Navoiy viloyati	418,9	1019,2	3944,7	9675,4	14343,1	148,24
Namangan viloyati	347,9	1010,4	4678,2	10819,1	13385,2	123,72
Samarqand viloyati	519,7	2010,6	5755,3	12226,9	15563,89	127,29
Surxondaryo viloyati	335,9	1351,3	4774,7	10880,8	13175,5	121,09
Sirdaryo viloyati	134,9	478,9	2407,6	4705,6	4874,2	103,58
Toshkent viloyati	509,9	1562	7102,6	20169,9	29331,43	145,42
Farg'ona viloyati	489,2	1649	5473,9	14014,5	16130,3	115,10
Xorazm viloyati	282,7	1174,7	2856,8	8652,6	11503,87	132,95
Toshkent shahri	1228,4	4113	19215,4	49850,3	70589,2	141,60

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda qurilish ishlari hajmi 2010–2024-yillar davomida izchil o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Agar 2010-yilda mamlakat bo'yicha qurilish ishlari hajmi 8,2 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 263,7 trln so'mga yetgan, ya'ni 32 barobarga yaqin o'sgan. Bu holat mamlakatda urbanizatsiya jarayonlari, aholi turmush sharoiti va infratuzilmaviy rivojlanish sur'atlarining tezlashganidan dalolat beradi. 2024-yilda 2023-yilga nisbatan qurilish ishlari hajmi 30 foizga oshgan bo'lib, bu milliy

<sup>1</sup> Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

iqtisodiyotda qurilish sohasining yetakchi tarmoqlardan biriga aylanganini ko'rsatadi. Hududlar kesimida tahlil qilinganda, Toshkent shahri 70,6 trln so'm hajm bilan mutlaq yetakchi hisoblanadi, bu shahardagi developerlik loyihalari, turar-joy va tijorat binolari qurilishi hamda transport infratuzilmasini yangilash ishlari bilan izohlanadi. Toshkent viloyatida ham 29,3 trln so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, o'tgan yilga nisbatan 45,4 foizlik jadal o'sish qayd etilgan. Navoiy viloyatida 48,2 foizlik o'sish sanoat obyektlari va energetika infratuzilmasini kengaytirish bilan bog'liq. Xorazm (132,9%), Andijon (128,5%), Samarqand (127,3%) va Buxoro (125,9%) viloyatlarida ham qurilish faolligi yuqori bo'lib, bu hududlarda shaharsozlik va investitsiya loyihalari jadallashganini anglatadi. Sirdaryo viloyatida eng past o'sish — 103,6 foiz qayd etilgan, bu hududda qurilish sektori faolligining cheklanganligi va loyihalar soni kamligini ko'rsatadi. Umuman olganda, ma'lumotlar qurilish sohasi mamlakat iqtisodiyotida multiplikativ samara berayotganini, hududiy infratuzilmani yangilash va aholi uchun zamonaviy yashash muhitini yaratish orqali yalpi hududiy mahsulot va investitsiya faolligining o'sishiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Tahlil obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi va uning 14 hududi bo'yicha 2024-yil uchun quyidagi ko'rsatkichlar olindi:

$Y$  – Yalpi hududiy mahsulot (mlrd so'm)

$X_1$  - Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd so'm)

$X_2$  - Qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm)

Tadqiqotda quyidagi klassik korrelyatsion-regression tenglama qo'llanildi:

$$Y = a + b_1 X_1 + b_2 X_2 + \varepsilon$$

Bu yerda:

$A$  – erkin a'zo (konstanta),

$b_1$  – investitsiyalar ta'sir koeffitsiyenti,

$b_2$  – qurilish ishlari ta'sir koeffitsiyenti,

$\varepsilon$  – xato ifodasi.

Korrelyatsion-regression tahlil natijalari shundan dalolat bermoqdaki, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan investitsiya faolligi va qurilish infratuzilmasi rivojiga bog'liq. Bu ikki omilning birgalikdagi ta'siri umumiy iqtisodiy o'sishning 95%dan ortiq qismini tushuntiradi ( $R^2 = 0.957$ ). Demak, hududlar kesimida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun infratuzilma qurilishi va sarmoyaviy muhitni yaxshilash ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Hisoblangan tenglama shaklida:

$$Y = 2154.6 + 2.31X_1 + 3.87X_2$$

Ceterus paribus sharoitida, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 1 trln so'mga oshishi YAHMni o'rtacha 2,31 trln so'mga oshiradi. Qurilish ishlari hajmining 1 trln so'mga oshishi YAHMni o'rtacha 3,87 trln so'mga oshiradi.

Ko'p omilli regressiya natijalari shundan dalolat beradiki, YAHM o'sishiga asosiy ta'sir etuvchi omillardan biri investitsiya faolligidir ( $\beta_1 = 2.31$ ).

Qurilish sohasi ham iqtisodiy o'sishning kuchli determinanti bo'lib ( $\beta_2 = 3.87$ ),

hududiy infratuzilmani kengaytirish orqali multiplikativ samara beradi.

Hududlar oʻrtasidagi rivojlanish nomutanosibligini kamaytirish uchun investitsiyalarni qayta taqsimlash, past oʻsish surʼatli viloyatlarda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini jadallashtirish lozim.

YAHM oʻsishini taʼminlash uchun qurilish va investitsiya faolligini uygʻunlashtirgan holda hududiy dasturlar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

1. Oʻzbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jadal va barqaror tendensiyaga ega boʻlib, bu jarayonni belgilovchi asosiy omillar sifatida yalpi hududiy mahsulot hajmi, asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori va qurilish ishlari hajmi namoyon boʻlmoqda. 2010–2024-yillar davomida mamlakat miqyosida YAHM hajmi 16 barobarga, asosiy kapitalga investitsiyalar 30 barobarga, qurilish ishlari esa qariyb 32 barobarga oʻsgan. Bu oʻsish milliy iqtisodiyotdagi strukturaviy islohotlar, sarmoyaviy muhitning yaxshilanishi va hududiy infratuzilmaning rivojlanishi bilan bevosita bogʻliq. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, YAHM oʻsishiga investitsiyalar va qurilish sohasi katta taʼsir koʻrsatadi: regressiya modeli boʻyicha investitsiyalarning 1 trln soʻmga koʻpayishi YAHMni oʻrtacha 2,3 trln soʻmga, qurilish ishlarining 1 trln soʻmga oshishi esa YAHMni 3,9 trln soʻmga koʻtarish imkonini beradi. Bu esa hududiy iqtisodiy oʻsishning 95 foizidan ortigʻi aynan ushbu ikki omilga bogʻliq ekanligini tasdiqlaydi ( $R^2=0,957$ ).

2. Hududlar kesimidagi tahlil shuni koʻrsatadiki, Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlari mamlakat iqtisodiyotining yetakchi markazlariga aylangan. Poytaxtda iqtisodiy faollik, developerlik, xizmatlar sohasi va ilgʻor infratuzilma loyihalari hajmi yuqori boʻlib, bu YAHMda 130 foizdan ortiq oʻsishni taʼminlagan. Navoiy viloyatida 132,9 foizlik oʻsish sanoat klasteri va resurslar asosidagi investitsiya siyosatining samaradorligini ifoda etadi. Shu bilan birga, Namangan, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ham investitsiya faolligi yuqori boʻlib, ularning YAHM oʻsish surʼati 117–120 foiz atrofida shakllangan. Biroq Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida past dinamika qayd etilgan, bu hududlarda sarmoyaviy salohiyatdan toʻla foydalanilmayotganini anglatadi.

3. Hududlar iqtisodiy oʻsishiga taʼsir etuvchi omillar oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlib, investitsiya faolligi va qurilish sohasi rivojlanishi hududiy iqtisodiy salohiyatni oshirishning asosiy drayveri hisoblanadi. Shu munosabat bilan hududlarda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xususiy kapital ishtirokini kengaytirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Bu choralar YAHM oʻsishi surʼatlarini barqarorlashtirish, hududlar oʻrtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish hamda Oʻzbekistonning barqaror mintaqaviy rivojlanish modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23\\_Karimov\\_D.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23_Karimov_D.pdf)
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/iqtisodiy-tsikl-uz>

3. Гулямов С.С. Моделирование социально-экономического развития территориально-промышленных комплексов. -Т.: Фан, 1980. - 194 с.;
4. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика // Монография. Т.: Iqtisod - Moliya, 2005. - 280 с.;
5. Рузметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис.....докт. экон. наук. –Т.: 1998;
6. Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. -Т.: ФАН, 1992;
7. Имамов Ш.Б. Регулирование территориального развития экономики Узбекистана: Автореф. дис...докт. экон. наук. -Т.: 1998;
8. Қаюмов А.А., Назарова Х.М., Эгамбердиев Ф.Т., Якубов Ў.Ш. Минтақавий иқтисодиёт. -Т.: Университет, 2004;
9. Назаров Ш.Ҳ. Ўзбекистон минтақалари рақобатдошлигини оширишнинг методологик асосларини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси автореферати. -Т.: 2016. - 5 б.;
10. Сиддиқов А.Ж. Иқтисодий ислохотларнинг янги босқичида саноат ишлаб чиқаришнинг минтақавий муаммолари (Қашқадарё вилояти мисолида) кандидатлик диссертацияси автореферати. -Т., 2006;
11. Якубов И.О. Минтақавий иқтисодиёт. -Т.: ТДИУ, 2016.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, oktabr, 10-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**